


**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
2021- yil yanvar-dekabr**




Joriy davrda 16225,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 69,6 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 30,4 % moliyalashtirildi.





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning 50,1 % to'g'ridan - to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, aholi mablag'lari hisobidan 12,2 %, korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari 18,2 %, Respublika byudjeti 6,7 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 5,9 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 3,6 %, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,0 % va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 2,6 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.





**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**

	Mrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	16225,1	72,7	100,0
Respublika byudjeti	1082,8	136,1	6,7
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	112,6	100,3	1,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	429,9	162,7	2,6
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	950,8	11,4	5,9
Korxonalar mablag'lari	2947,3	101,5	18,2
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	591,2	69,5	3,6
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	8126,9	115,5	50,1
Aholi mablag'lari	1983,5	99,8	12,2




**Shahar va tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**

	Mrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan, % da
Qashqadaryo viloyati	16225,1	72,7	100,0
Qarshi sh.	2966,1	132,5	18,3
Shahrisabz sh.	133,2	92,3	1,0
<i>tumanlar</i>			
G'uzor	4631,3	96,4	28,5
Dehqonobod	278,0	120,2	1,7
Qamashi	253,2	120,2	1,6
Qarshi	718,4	59,1	4,4
Koson	452,3	152,5	2,8
Kitob	960,9	109,5	5,9
Muborak	2836,9	86,0	17,5
Mirishkor	361,8	63,9	2,2
Nishon	723,2	10,1	4,5
Kasbi	423,9	113,3	2,6
Chiroqchi	334,6	103,5	2,1
Shahrisabz	805,2	4 marta	5,0
Yakkabog'	346,2	86,7	2,1



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning shahar va tumanlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Shahrisabz tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 448,0 %, Koson tumanida 152,5 %, Qamashi va Dehqonobod tumanlarida 120,2 %, va Kasbi tumanida 113,3 % ni tashkil etdi.

Eng kam ko'rsatgich Nishon tumaniga to'g'ri kelib bu ko'rsatgich 10,1 % ni tashkil qildi.



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Jamiga nisbatan % da




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha hududlar kesimida G'uzor tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,5 % o'zlashtirildi.

Shuningdek keyingi o'rinda Qarshi shahri – 18,3 % ni tashkil etmoqda.

Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich mos ravishda – 17,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha – 7968,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar – 6972,8 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga – 1283,6 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning
takror ishlab chiqarish tarkibi
(jamiga nisbatan, % da)**




Joriy davrda ham asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi – 6033,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,2 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar – 5332,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 32,9 % ini tashkil etdi. Qolgan 29,9 %, yani – 4859,1 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida Tog' kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan – 7018,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 43,3 % o'zlashtirilgan.

Tashish va saqlashda – 174.9,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,1 % o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd. so'm

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To'g'ridan – to'g'ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiyalar	kreditlar		Investitsiyalar	Kafolatlanmagan kreditlar
Qashqadaryo	9077,7	2771,3	6306,4	8126,9	2116,1	6010,8
Qarshi sh.	1172,2	331,3	840,9	402,2	14,9	387,3
Shahrisabz sh.	19,8	4,7	15,1	19,8	4,7	15,1
<i>tumanlar</i>						
G'uzor	3205,9	118,5	3087,4	3205,1	118,5	3086,6
Dehqonobod	53,0	47,9	5,1	51,8	47,9	3,9
Qamashi	23,6	0,5	23,1	2,3	0,5	2,1
Qarshi	336,3	265,3	71,0	334,5	265,3	69,2
Koson	177,6	10,6	167,0	167,8	10,7	157,1
Kitob	664,0	613,0	51,0	662,5	612,9	49,6
Muborak	2148,5	810,2	1338,3	2131,8	471,3	1660,5
Mirishkor	61,3	58,7	25,6	60,1	58,7	1,4
Nishon	498,6	465,3	33,3	465,3	465,3	0
Kasbi	180,0	45,6	134,4	179,5	45,6	133,9
Chiroqchi	14,2	0,5	13,7	12,7	0,5	12,2
Shahrisabz	506,2	1,0	505,2	396,0	1,0	395,0
Yakkabog'	16,5	0	16,5	15,0	14,8	0,2



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



jamiga nisbatan, % da


Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi Tog'-kon sanoati o'zlashtirilib, u 7018,4 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 43,3 % ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha – 4835,2 mlrd. so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 29,8 % o'zlashtirildi.

Turar joy qurilishi faoliyati bo'yicha – 1138,2 mlrd. so'm, qurilish faoliyati bo'yicha – 1141,9 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.



Foydalanishga topshirilgan turar joylar



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 989.3 ming kv.m bo'lgan 5291 ta turar joy obyekti yangi qurilib, ulardan umumiy maydoni 718,2 ming kv.m bo'lgan 3558 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Chiroqchi tumanida ishga tushirilgan 110,0 ming kv.m va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 11,0 % ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Kitob tumani egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 10,6 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

